

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ARIFMETIK AMALLARNI O'RGATISHDA AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH METODLARI

Xojimammatova Jamilaxon Shavkatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni samarali o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'рни va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy raqamli vositalar orqali dars jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarda mustahkam bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish usullari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, matematik kompetensiyani rivojlantirishda multimediyaviy vositalari, virtual dasturlar, mobil ilovalar va elektron resurslardan foydalanish metodikasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, arifmetik amallar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv dars, raqamli ta'lim, matematik kompetensiya.

Аннотация. В данной тезисной работе освещается роль и значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в эффективном обучении арифметическим действиям учеников начальных классов. Рассматриваются методы организации интерактивных уроков с использованием цифровых средств, способствующих формированию прочных знаний и практических навыков. Также анализируются методики применения мультимедийных инструментов, виртуальных программ, мобильных приложений и электронных ресурсов для развития математической компетентности учащихся.

Ключевые слова: Образование, арифметические действия, информационно-коммуникационные технологии, интерактивный урок, цифровое обучение, математическая компетентность.

Annotatsion. This thesis highlights the importance and role of Information and Communication Technologies (ICT) in effectively teaching arithmetic operations to primary school students. It explores methods of organizing interactive lessons through digital tools, aiming to develop solid knowledge and practical skills. The study also analyzes methodological approaches to using multimedia tools, virtual applications, mobile apps, and electronic resources to enhance students' mathematical competence.

Key words: Primary education, arithmetic operations, information and communication technologies, interactive lesson, digital learning, mathematical competence.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayoni kechmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish o'quvchilarning bilim

olishini sezilarli darajada yengillashtiradi¹. Arifmetik amallarni o‘rgatishda raqamli vositalar orqali ta‘lim berish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tezisda AKT asosida darslarni tashkil etish metodikasi, interaktiv resurslar va zamonaviy ilovalardan foydalanish tajribalari tahlil qilinadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turlari (kompyuter dasturlari, elektron darsliklar, ta‘limiy ilovalar) O‘quvchilarda motivatsiyani oshirishdagi o‘rni juda muhim. Qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallarini vizual va interaktiv tarzda o‘rgatish GeoGebra, LearningApps, Matific, Khan Academy, Wordwall kabi vositalardan foydalanish. Maqsadni belgilash, mos vosita tanlash, topshiriqlarni shakllantirish, tahlil qilish. Bir nechta boshlang‘ich sinfda olib borilgan tajriba asosida AKT qo‘llangan darslarning samaradorligi juda ham yuqori bo‘ladi. Shuningdek, individual yondashuvni ta‘minlab, har bir o‘quvchining o‘z su‘ratida rivojlanishning rag‘batlantiradi. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchilarda matematik tafakkur, hisoblash ko‘nikmalar va mantiqiy fikirlashni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, arifmetik amallar – qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish kabi asosiy operatsiyalarni o‘rgatish o‘quvchilarning keyingi bosqichlardagi matematik muvaffaqiyatlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi².

Arifmetik amallarni o‘rgatishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

1. Bosqichma – bosqichlik tamoyili – har bir arifmetik amalni avval vizual, keyin konkret misollar orqali tushuntirish, so‘nggi nazariy va amaliy mashqlar bilan mustahkamlash.

2. Didaktik o‘yinlar va mashqlar – darslarda o‘yin elementlaridan foydalanish orqali bolalarda darsga qiziqish uyg‘otiladi va o‘zlashtirish darajasi oshadi.

3. Modellash va predmetli tasvirlaridan foydalanish – hisoblash amallarni oson anglash uchun hisobstendlar, kubiklar, shaxmat taxtalari, chizmalar kabilardan foydalanish.

4. Differensial yondashuv – har bir o‘quvchining bilim darajasiga qarab individual topshiriqlar berish, kuchli va sust o‘quvchilar bilan alohida ishlash.

5. Muommoli vaziyat yaratish – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi savollar, topshiriqlar yordamida o‘zlashtirishni chuqurlashtirish.

6. Matematik nutqni rivojlantirish – o‘quvchilarni hisoblash natijalarini og‘zaki va yozma ravishda izohlashga o‘rgatish orqali mantiqiy nutqni shakllantirish³.

Umumiy olganda, arifmetik amallarni o‘rgatishda turli metodik usullar va vositalar uyg‘unlashtirib qo‘llash, o‘quvchilarning Yoshi psixologik xususiyatlari hamda individual ehtiyojlarini inobatga olish-muvaffaqiyatli o‘quv jarayonining garovidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta‘limda arifmetik bilimlarni chuqurroq egallash, o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Dars jarayonini qiziqarli, tushunarli va interaktiv tashkil etish orqali raqamli texnologiyalar matematika fani

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta‘limni joriy etish” haqidagi qarori

² Qodirova D. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2021.

³ Matific. (<https://www.matific.com>)

samaradorligini oshiradi. Kelgusida har bir pedagog AKTdan foydalanish kompetensiyasini doimiy ravishda oshirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni joriy etish” haqidagi qarorlari.
2. Qodirova D. “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2021.
3. Jonibekova M. “Axborot texnologiyalar asoslari”. Toshkent, 2020.
4. Matific. (<https://www.matific.com>)
5. Khan Academy Uzbek. (<https://uz.khanacademy.org>)
6. LearningApps. (<https://learningapps.org>)
7. Mavzuga oid ilmiy maqolalar va internet manbalari